

## BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI FANI O‘QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Xayitov Jonibek Xolboboyevich,**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*San‘atshunoslik kafedrasida katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD).*

*Shahrisabz, O‘zbekiston*

*E-mail: [xayitovjonibek77@gmail.com](mailto:xayitovjonibek77@gmail.com)*

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18695497>**

**Annotatsiya.** Maqola bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda o‘qituvchilarning ijodiy fikrlash, muammoni hal etish va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishdagi roliga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi, psixologik omillar, motivatsiya va shaxsiy xususiyatlarning ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini professional va pedagogik faoliyatda samarali ijodiy yondashuvlar bilan tayyorlashga imkon beruvchi strategiyalarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar va tushunchalar:** Texnologiya fani o‘qituvchisi; Kreativ qobiliyat; Pedagogik-psixologik asoslar; Innovatsion metodlar; Ijodiy rivojlanish; Pedagogik motivatsiya.

**Аннотация.** Статья посвящена изучению педагогико-психологических основ проблемы развития креативных способностей будущих учителей предмета «Технология». В ней особое внимание уделяется роли учителей в формировании творческого мышления, решения проблем и инновационных подходов. Также в статье анализируется методика развития творческих способностей, психологические факторы, мотивация и значимость личностных качеств. Результаты исследования послужат основой для разработки стратегий, позволяющих подготовить будущих учителей технологии к эффективному применению творческих подходов в профессиональной и педагогической деятельности.

**Ключевые слова и понятия:** Учитель технологии; Креативная способность; Педагогико-психологические основы; Инновационные методы; Творческое развитие; Педагогическая мотивация.

**Abstract.** The article is devoted to studying the pedagogical and psychological foundations of the problem of developing creative abilities in future technology teachers. It places special emphasis on the role of teachers in shaping creative thinking, problem-solving, and innovative approaches. The article also analyzes the methodology for developing creative abilities, psychological factors, motivation, and the significance of personal qualities. The research results will serve as a basis for developing strategies that enable the preparation of future technology teachers for the effective application of creative approaches in professional and pedagogical activities.

**Keywords:** Technology teacher; Creative ability; Pedagogical-psychological foundations; Innovative methods; Creative development; Pedagogical motivation.

**Kirish.** Zamonaviy ta‘lim jarayonida texnologiya fanlarini o‘qitadigan mutaxassislarning professional tayyorgarligi nafaqat bilim va ko‘nikmalar bilan, balki ijodiy va kreativ qobiliyatlar bilan ham belgilanadi. Kreativ qobiliyat – bu muammoni yangicha usullar bilan hal qilish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkonini beruvchi muhim shaxsiy sifatdir. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik va

psixologik nuqtai nazardan izchil tadqiq etishni talab qiladi, chunki ularning shaxsiy va professional rivojlanishi bevosita ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

Maqola doirasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning metodik va psixologik asoslari tahlil qilinadi, shuningdek, innovatsion yondashuvlar va pedagogik motivatsiya roliga e'tibor qaratiladi. Tadqiqotning natijalari o'qituvchilarning professional faoliyatida kreativlikni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Texnologiya fanini o'qituvchi bo'lishni istovchi shaxslar uchun kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kreativlik — bu insonning yangicha fikrlash, muammolarni noodatiy usullar bilan hal etish va ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyati sifatida ta'riflanadi (Torrance, 1974). Shu bois, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari o'z pedagogik faoliyatida nafaqat mavjud metodikalarni qo'llash, balki yangi, innovatsion yondashuvlarni ham ishlab chiqishga tayyor bo'lishi lozim. Psixologik adabiyotlar kreativ qobiliyatlarning shaxsiy xususiyatlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Masalan, Guilford (1967) ijodiy fikrlashni divergent va konvergent fikrlash orqali tasniflaydi, bunda divergent fikrlash — yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati, konvergent fikrlash esa mavjud bilimlarni tizimlashtirish orqali muammolarni yechishdir. Shu nuqtai nazardan, texnologiya fanini o'qituvchilarga nisbatan divergent fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuvlarni yaratishga imkon beradi. Pedagogik adabiyotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi ham keng yoritilgan. Vygotskiy (1978) ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, ijodiy qobiliyatlar shaxsning ijtimoiy-madaniy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu bois, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar, loyihaviy ishlar va guruhli muhokamalar orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish samarali hisoblanadi.

Shuningdek, texnologiya fanini o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham keng o'rganilgan. Masalan, Kagan (1994) va Robinson (2011) ijodiy o'qitish metodlarini tavsiya etib, o'qituvchilarning va o'qituvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, texnologiya fanini o'qituvchi bo'lishni xohlovchi shaxslar uchun muhim jihatlardan biri — multidisipliner yondashuvlarni qo'llash orqali yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Milliy ta'lim tizimi doirasida ham bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ta'lim tizimida "innovatsion ta'lim texnologiyalari" va "loyihaviy faoliyat" kabi komponentlar o'quv jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy va xorijiy adabiyotlar

o'rtasida taqqoslash shuni ko'rsatadiki, pedagogik-psixologik yondashuvlar asosan shaxsiy motivatsiya, ijodiy qiziqish va innovatsion muhitni yaratishga yo'naltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning metodologiyasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining yetakchi nazariyalari hamda ilmiy-amaliy yondashuvlariga tayanadi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning ijodiy rivojlanishi haqidagi psixologik qarashlar, ta'lim jarayonida kreativlikni shakllantirish konsepsiyalari, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ijodiy faoliyat asosida takomillashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish orqali mavzuga oid nazariy qarashlar chuqur o'rganildi.

Bu jarayon bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining mohiyatini aniqlash, mavjud yondashuvlarni baholash hamda tadqiqotning konseptual asoslarini belgilashga xizmat qildi. Shu bilan birga, empirik tadqiqot metodlari yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash darajasi, ijodiy faolligi va innovatsion faoliyatga munosabati o'rganildi. Tadqiqotda pedagogik kuzatish, suhbat va anketa so'rovlari orqali ta'lim jarayonidagi real holat tahlil qilindi, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida olib borildi. Shakllantiruvchi bosqichda muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalarni tahlil qilish va ularning ishonchliligini aniqlash maqsadida matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash, kreativ qobiliyatlar rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlarni ilmiy asosda baholash imkonini berdi. Tadqiqotda tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Natijada, mazkur metodologiya bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini kompleks tarzda o'rganish, samarali pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur tadqiqot doirasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish holati tahlil qilindi hamda o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari umumlashtirildi. Tadqiqotning dastlabki, aniqlovchi bosqichida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash darajasi, ijodiy faolligi va innovatsion faoliyatga munosabati aniqlanib, mavjud holat tahlil qilindi.

Kuzatish, suhbat va anketa natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning aksariyat qismida kreativ qobiliyatlar yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, ularning pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvlardan foydalanish ko'nikmalari past darajada ekanligi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar tahlili bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining aksariyati an'anaviy o'qitish metodlariga ko'proq tayanishini, muammoli vaziyatlarni hal etishda noodatiy yechimlarni ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatdi. Shuningdek, respondentlarda mustaqil fikrlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan aniqlandi.

Bu holat texnologiya fanini o'qitishda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik shart-sharoitlarning zarurligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning shakllantiruvchi bosqichida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, loyihaviy faoliyat, muammoli ta'lim, interfaol metodlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar joriy etildi. Ushbu jarayonda talabalar mustaqil va jamoaviy faoliyatga jalb qilinib, ularning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi va pedagogik muammolarga ijodiy yondashish qobiliyatlari bosqichma-bosqich rivojlantirildi. Shakllantiruvchi tajriba natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativ qobiliyatlar darajasi sezilarli darajada oshgan. Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar, ijodiy topshiriqlar va amaliy ishlar mazmuni tahlili ularning mustaqil fikrlash, yangi g'oyalarni ilgari surish hamda innovatsion yechimlarni qo'llash ko'nikmalari rivojlanganini tasdiqladi. Shuningdek, respondentlarning o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi kuchaygani kuzatildi. Nazorat bosqichida o'tkazilgan yakuniy tahlil natijalari tajriba-sinov ishlarining samaradorligini ko'rsatdi. Matematik-statistik tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlari darajasi nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Bu esa tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlarning samarali ekanligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativlikni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik asoslarini o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilindi, mavjud holat empirik metodlar asosida o'rganildi hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Olingan natijalar bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimi uchun dolzarb va muhim masala

ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilganda samarali kechadi. Aniqlovchi bosqichda talabalar kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion faoliyat ko'nikmalariga yetarli darajada ega emasligi aniqlandi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov jarayonida esa loyihaviy faoliyat, muammoli ta'lim va interfaol metodlardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faolligi va kasbiy kompetensiyalarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlar samaradorligi tajriba-sinov natijalari bilan tasdiqlandi. Matematik-statistik tahlil natijalari tajriba guruhida kreativ qobiliyatlar darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu esa texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metodikani joriy etish zarurligini asoslab berdi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi: texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar va loyihaviy faoliyatni o'quv rejalarga tizimli ravishda kiritish; ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish; bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil va jamoaviy ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish; professor-o'qituvchilarning kreativ pedagogika bo'yicha malakasini oshirishga yo'naltirilgan trening va seminarlarni tashkil etish.

Shuningdek, texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida tavsifa etiladi. Kelgusida mazkur tadqiqot natijalari texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
3. Xudayberdiyeva M.K. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021.
4. Sodiqova N.N. Raqamli pedagogika: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 160 b.
5. Xayitov J.X. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 3/2022. –B. 78-81. (13.00.00: №31).
6. Xayitov J.X. Texnologik ta'lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi // Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari. Mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz, 2022. -B. 389-392.
7. Xabibullayev A., Qodirova N. (2023). "Raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha metodik qo'llanma".

8. Xayitov J.X. “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish” nomli monografiya “IMPRESS MEDIA” MCHJ NMIU bosmaxonasida chop etildi. UO‘K: 373.1:745 KBK 74.204 37.27 ISBN 978-9943-7244-9-5.
9. Xayitov J.X. Media savodxonlik va axborot madaniyati Fanidan (ma’ruza mashg‘uloti mavzulari uchun) O‘quv qo‘llanma Media savodxonlik va axborot madaniyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti, 2024. – 126 b ISBN: 978-9910-725-23-4.
10. Xayitov J.X. Bo‘lajak pedagoglarda internet, virtual axborot madaniyatini shakllantirish “Pedagogik mahorat” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 4-son (2024-yil, aprel) ISSN 2181-6883.
11. Nurmamatov Z.Sh. Sun’iy intellektdan foydalanib bo‘lajak “texnologiya” fani o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash metodikasi Tafakkur ziyosi 2/2024 ilmiy uslubiy jurnal Jurnalning xalqaro ISSN raqami : 2181-6131 Jurnalning Index raqami: 3535.
12. Nurmamatov Z.Sh. “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” nomli monografiya “IMPRESS MEDIA” MCHJ NMIU bosmaxonasida chop etildi. UO‘K: 373.1:745 KBK 74.204 37.27 Z 94 ISBN 978-9943-7244-9-5.

